



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## KREDIT RISKI

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**

*iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
bank ishi kafedrasini mudiri  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Normatov Muslimbek No'rbo'ta o'g'li**

*moliya fakulteti MMT-72 guruh talabasi,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
E-mail: [muslimbeknormatov2005@gmail.com](mailto:muslimbeknormatov2005@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida kredit riskining mohiyati, tasnifi, yuzaga kelish sabablari hamda uni baholash usullari kompleks tarzda o'rganilgan. Kredit riskining asosiy turlari ko'rib chiqilib, unga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar tahlil qilingan. Amaliy qism sifatida to'liq ehtimollik formulasi va Bayes formulasidan foydalanib, kreditning qaytarilmaslik ehtimoli miqdoriy jihatdan hisoblab ko'rsatilgan — xususan, davlat tashkilotlari, banklar va yuridik shaxslar tomonidan kreditni qaytarmaslik ehtimollari aniqlangan. Kredit riskini o'lchashda giring koeffitsiyentining roli va uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Bundan tashqari, kredit riskini tahlil qilishda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari — rentabellik, likvidlik, moliyaviy liveridj va foizlar qoplamasi koeffitsiyentlari — asosiy vositalar sifatida ko'rib chiqilgan. Maqola bank amaliyotida kredit riskini aniqlash, baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy risk, kredit riski, to'liq ehtimollik formulasi, Bayes formulasi, giring koeffitsiyenti, foizlar qoplamasi, moliyaviy tahlil, likvidlik, tijorat banki.

## КРЕДИТНЫЙ РИСК

**Рустамов Максуд Сувонкулович**

*д.э.н., профессор  
заведующий кафедрой банковское дело  
Ташкентского государственного  
экономического университета*

**Норматов Муслимбек Нурбута угли**

*студент группы ММТ-72  
факультета «Финансы»  
Ташкентского государственного  
экономического университета  
E-mail: [muslimbeknormatov2005@gmail.com](mailto:muslimbeknormatov2005@gmail.com)*

**Аннотация.** В данной статье всесторонне исследуются природа, классификация и причины кредитного риска в деятельности коммерческих банков, а также методы его оценки. Рассматриваются основные виды кредитного риска и анализируются макроэкономические и микроэкономические факторы, влияющие на него. В качестве практической части количественно рассчитывается вероятность невозврата кредита с использованием формулы полной вероятности и формулы Байеса — в частности, определяются вероятности невозврата кредита государственными организациями,





банками и юридическими лицами. Подчеркивается роль ключевого коэффициента в измерении кредитного риска и его влияние на финансовую стабильность. Кроме того, в качестве основных инструментов анализа кредитного риска рассматриваются показатели финансовой отчетности – рентабельность, ликвидность, финансовый рычаг и коэффициент покрытия процентных платежей. Статья служит для совершенствования системы выявления, оценки и управления кредитным риском в банковской практике.

**Ключевые слова:** финансовый риск, кредитный риск, формула полной вероятности, формула Байеса, взвешенный коэффициент, покрытие процентных платежей, финансовый анализ, ликвидность, коммерческий банк.

## CREDIT RISK

**Rustamov Maksud Suvonqulovich**

*Prof., D.Sc. in Economics  
Head of the "Banking" Department  
Tashkent State University of Economics*

**Normatov Muslimbek Norbuta ugli**

*Student of group MMT-72,  
Faculty of Finance  
Tashkent State University of Economics  
E-mail: [muslimbeknormatov2005@gmail.com](mailto:muslimbeknormatov2005@gmail.com)*

**Abstract.** *This article comprehensively studies the nature, classification, causes of credit risk in the activities of commercial banks, and methods for its assessment. The main types of credit risk are considered, and the macroeconomic and microeconomic factors affecting it are analyzed. As a practical part, the probability of non-repayment of a loan is calculated quantitatively using the full probability formula and the Bayes formula - in particular, the probabilities of non-repayment of a loan by state organizations, banks and legal entities are determined. The role of the key coefficient in measuring credit risk and its impact on financial stability are highlighted. In addition, financial reporting indicators - profitability, liquidity, financial leverage and interest coverage ratios - are considered as the main tools in analyzing credit risk. The article serves to improve the system for identifying, assessing and managing credit risk in banking practice.*

**Key words:** *financial risk, credit risk, full probability formula, Bayes formula, weighted coefficient, interest coverage, financial analysis, liquidity, commercial bank.*

### **Kirish**

Banklar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklari, ularning darajasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi hartlarining bajarilmasligi ya'ni kredit summasining (qisman yoki to'liq) va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi. Kredit risklarini aniqlash va baholash har qanday tijorat banking rivojlanish hamda taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditorda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi. Ma'lumki, bank amaliyotida foyda berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz to'lovlari yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi, yoki umuman to'lanmasligi bank foydasining





kamayishi bankning kelajakdagi mablag`lari salmog`ini tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun kreditorlar ular bergan mablag`larning qaytishi bilan bog`liq risklarni kamaytirishga harakat qiladilar.

Kredit risklari tarkibiga quyidagi risklarni kiritish mumkin:

1) kreditni o`z vaqtida qaytarmaslik bilan bog`liq risk. Bu risk qarz oluvchining kredit shartnomasining shartlarini bajarmasligi bilan bog`liq.

2) kredit tanasi va foizlarni muddatida qaytara olmaslik natijasida bank likvid mablag`larining kamayishiga olib kelishi bilan bog`liq risk.

3) kreditni ta`minlash bilan bog`liq risk. Bu risk turi kredit uchun qo`yilgan garovni sotishdan tushgan mablag` ajratilgan kreditni qoplash uchun yetarli emasligi bilan bog`liqdir, natijada bank o`z talabini to`la qondira olmaydi.

4) qarz oluvchining ishbilarmonligi bilan bog`liq risklar. Bu risk korxonaning ish faoliyati bilan bog`liq bo`ladi (sotib olish, ishlab chiqarish va sotish). Ammo boshqa risklardan farqli o`laroq bu riskka korxonahabari bilan bog`liq bo`lmagan omillar ham ta`sir ko`rsatadi, masalan tarmoqning rivojlanishi va konyukturasi. Bu riskning hajmini investitsion dastur va ishlab chiqaradigan mahsulot turi hamda sifati belgilaydi.

Kredit bo`limi bankning eng asosiy bo`limidir. Kredit berishda har doim mijoz bilan kreditni qaytarmaslik riski mavjud. Albatta, rivojlangan mamlakatlarda kreditni qaytarish sud orqali talab qilinishi mumkin, ammo aksariyat hollarda banklar bunday yo`l tutmaydi. Axir kreditning qaytarilmasligi – bankka bevosita zarar yetkazishdir, bu xodimlar ish haqiga ham ta`sir etib, hatto bankni bankrot holatiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, kredit qaytarilmasligining oldini olish, kredit qaytmasligi riskini kamaytirish – bu kredit bo`limining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Kredit riskini boshqarish va baholash masalalari iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar diqqat markazida bo`lib kelgan. Ilmiy adabiyotlarda kredit riskiga turlicha yondashuvlar mavjud bo`lib, ularni shartli ravishda nazariy-uslubiy va matematik-statistik guruhlariga ajratish mumkin.

Vahobov A.V. va Mallaboyev N.M. kabi mahalliy olimlar o`z tadqiqotlarida kredit riskini bankning likvidligiga bevosita ta`sir etuvchi omil sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, kredit riski faqatgina mablag`ning qaytmasligi emas, balki bankning to`lov qobiliyatiga putur yetkazuvchi tizimli jarayondir.

G`arb bank amaliyotida, xususan Amerika banklarida qarz oluvchining sifatini baholashda "5C" tamoyili (Character, Capacity, Capital, Collateral, Conditions) fundamental mezon hisoblanadi. Bu model mijozning nafaqat moliyaviy holatini, balki uning ishbilarmonlik obro`si va psixologik tayyorgarligini ham qamrab oladi.

So`nggi yillarda kredit riskini prognoz qilishda ehtimollik nazariyasi va statistik metodlardan foydalanish ko`lami kengaydi. Fozilchayev Sh.Q. va Xidirov N.G`. o`z ishlarida moliyaviy risklarni miqdoriy baholashda ehtimollik modellarining ahamiyatini alohida qayd etishgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada kredit riskini baholashda miqdoriy va sifat usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

O`zbekistonda moliya infratuzilmasi, ayniqsa bank sektori so`nggi yillarda jadal rivojlandi. 2026-yil holatiga ko`ra, mamlakatda 6 ta to`lov tizimi va 35 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda.

Logistik regressiya kredit skoring tizimida eng keng qo`llaniladigan asosiy usullardan biridir. Ushbu usul qarzdorning kreditni qaytarish ehtimolini matematik va statistik modellardan foydalangan holda hisoblaydi.





*Logistik regressiya usulini ishlash mexanizmi:*

1. *Qaror qabul qilish jarayoni:*

- ✓ usul qarzdorning kreditni qaytarish ehtimolini ( $P(y=1)$ ) hisoblaydi;
- ✓ natijalar 0 va 1 oralig'ida bo'ladi:
- $P(y=1)=1$  - Qarzdor kreditni qaytaradi.
- $P(y=1)=0$  - Qarzdor kreditni qaytara olmaydi.

2. *Kiritiladigan ma'lumotlar (xususiyatlar):*

- ✓ Daromad: Qarzdorning oylik yoki yillik daromadi.
- ✓ Qarzdorlik yuki: Jami qarzning o'z kapitalga nisbati.
- ✓ Kredit tarixi: Qarzdorning avvalgi qarzlarni qaytarish intizomi.

Demografik ma'lumotlar: Yoshi, ish staji, yashash joyi.

3. Matematik formulasi: Logistik regressiyaning asosiy formulasi quyidagicha:

$$P(y=1) = \frac{1}{1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n)}} \quad (2)$$

Bu yerda:

- $P(y=1)$  - Qarzdorning kreditni qaytarish ehtimoli.
- $X_1, X_2, \dots, X_n$  - Qarzdorning xususiyatlari (masalan, daromad, qarzdorlik yuki).
- $\beta_0, \beta_1, \dots, \beta_n$  - Har bir ko'rsatkichning ta'sir koeffitsienti.

4. Baholash natijalari:

$P(y=1)$  ehtimoli aniqlandi:

✓ Agar ehtimol yuqori bo'lsa (masalan,  $> 0.7$ ): Kreditni qaytarish ehtimoli katta, qarz berish tavsiya etiladi.

✓ Agar ehtimol past bo'lsa (masalan,  $< 0.3$ ): Kreditni qaytarish xavfi yuqori, qarz berish rad etiladi.

Banklarda kredit riski qarzdorlarning bank ssudalariga bo'lgan qarzlarning yig'indisidan tashkil topadi, shuningdek, mijozlarning boshqa bitimlar uchun qarzlari iborat. Kompaniyalar ham bank bilan bo'lgan operatsiyalarida ma'lum bir kredit riskiga duch kelishi mumkin. Agar kompaniya bank omonatlariga joylashtirgan ko'pgina bo'sh zaxiralarga ega bo'lsa, bankning tugatilish riski yuzaga kelganida kompaniya o'z omonatlarining katta qismini yo'qotadi. Shuningdek, kompaniya bitta bankning o'zida juda ko'p omonatini joylashtirgan taqdirda, foizli risk mavjud, sababi, bank doimiy omonatchi mijoz ekanligini bilgani holda, kompaniyaning boshqa bir bankdan yangi omonati uchun olishi mumkin bo'lgan yuqori foiz stavkasini taklif etmasligi mumkin. Kredit riskining hajmi – qarz to'lanmasa yoki to'lanishi kechiktirilganda yo'qotilishi mumkin bo'lgan summa. Maksimal potensial zarar – mijoz tomonidan qaytarilmagan qarzning umumiy miqdori. Kechiktirilgan to'lovlar – bevosita zararga olib kelmasdan, balki bilvosita, foizlar (keragidan ortiq uzoq vaqt davomida debitorlarni moliyalashtirish zarurati tufayli) bo'yicha xarajatlar yoki mablag' o'z vaqtida qaytarilib omonatga qo'yilganida olinishi mumkin bo'lgan foizdagi yo'qotishlar. Qiyin sharoitda qolgan kompaniyalarga kredit berishda kredit riski yuqori bo'lishiga qaramasdan, ehtimolli daromadni boy bermaslik uchun banklar ularni taqdim etishga majbur.

Kreditning qaytarilmasligi haqida xabar kelganidan so'ng, faksdagi mijoz ma'lumoti mujmalligi aniqlanadi. Ushbu kreditning davlat tashkiloti tomonidan qaytarilmaslik ehtimoli qanday? Kreditning kredit oluvchi tomonidan qaytarilmaslik ehtimoli Bayes formulasi orqali aniqlanadi.

$$R_A(B_1) = \frac{R(B_1)R_{B_1}(A)}{R(A)} \quad (1)$$

Tijorat banklari ichki kredit siyosati asosida chiqarilgan yo'riqnomaga bo'yicha korxonalarni





kreditga layoqatliligi asosiy ko`rsatkichlari bo`lib: qoplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti va o`z aylanma mablag`lari bilan ta`minlanish koeffitsientlari hisoblanadi.

1-jadval

**Korxonalarining kreditga layoqatlik ko`rsatkichlari bo`yicha sinflarga bo`linishi**

No	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
1.	Qoplash koef. (Q.k)	$Q.k > 2$	$1 < Q.k \leq 2$	$0,5 < Q.k \leq 1$
2.	Likvidlik koef. (L.k)	$L.k > 1,5$	$1 < L.k \leq 1,5$	$0,5 < L.k \leq 1$
3.	Muxtoriylik koef. (M.k)	$M.k > 60\%$	$30\% < M.k \leq 60\%$	$15\% < M.k \leq 30\%$

2-jadval

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari<sup>1</sup>**

No	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kredilar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
<b>Jami</b>		<b>623 286</b>	<b>19 861</b>	<b>3,2%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>415 581</b>	<b>14 296</b>	<b>3,4%</b>
1	O`zmilliybank	108 018	3 089	2,9%
2	Agrobank	86 547	2 803	3,2%
3	O`zsanoatqurilishbank	63 307	2 346	3,7%
4	Asaka bank	40 741	1 705	4,2%
5	Xalq banki	35 552	1 069	3,0%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 915	1 095	4,4%
7	Mikrokreditbank	21 180	940	4,4%
8	Aloqa bank	20 703	709	3,4%
9	Turon bank	14 617	539	3,7%
10	Ipoteka bank	35 640	941	2,6%
11	Kapital bank	37 474	1 052	2,8%
12	Hamkor bank	26 787	248	0,9%
13	Ipak yo`li bank	16 919	238	1,4%
14	Orient Finans bank	12 852	24	0,2%
15	Tibisi bank	8 983	625	7,0%
16	Anor bank	11 007	605	5,5%
17	Davr bank	9 218	290	3,1%
18	Invest Finans bank	10 408	273	2,6%
19	Trast bank	8 289	341	4,1%
20	Tenge bank	4 691	182	3,9%
21	Azija Aljans bank	4 617	46	1,0%
22	O`zKDB bank	3 852	0	0,0%
23	Hayot bank	5 718	233	4,1%
24	Ziraat bank	2 495	120	4,8%
25	Universal bank	2 185	15	0,7%
26	Garant bank	1 507	179	11,9%
27	AVO bank	1 091	67	6,2%
28	Apeks bank	1 941	1	0,0%
29	Oktobank	460	0	0,0%
30	Madad invest bank	399	11	2,7%
31	Poytaxt bank	276	71	25,6%
32	Open bank	803	3	0,4%
33	Uzum bank	85	0	0,0%
34	Soderot bank	10	1	5,7%

<sup>1</sup> CBU ma`lumotlari (2026-yil 1-aprel holatiga ko`ra)




KREDIT-AXBOROT TAHLILYI MARKAZI  
KREDIT BYUROSU

infokredit.uz

info@infokredit.uz

100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko'chasi, 1-uy

+99871 203-47-47

Kredit hisoboti turi: 177 "InfoScore"  
Kredit axboroti subyekti turi: Qarz oluvchi  
Kredit hisoboti foydalanuvchisi: my.gov.uz (99001), WEB  
So'rov raqami: WEB2024251686278 So'rov vaqti: 2024-09-07, 10:30  
Rozilik raqami: 146506566 Rozilik sanasi: 2024-09-07  
Ariza raqami: 146506566 Ariza sanasi: 2024-09-07



1. KREDIT AXBOROTI SUBYEKTI




F.I.O.:  
JShShIR:  
Tug'ilgan sana:  
Jinsi: E  
Huquqiy maqomi: Jismoniy shaxs  
Ro'yhatdan o'tgan manzili:  
Yashash manzili: [2021-10-25] [2016-03-25] [2022-08-17]  
Telefon raqami:  
Elektron pochta: m/y [2024-09-07]

2. SCORING CIAC

SKORING BALL: 398  
BAHOLASH SINFI: B3, Yaxshi daraja  
SKORING TURI: 1.6



3. ДИНАМИКА SKORINGOVOGO BALLA



4. UMUMLASHTIRILGAN MA'LUMOTLAR (OCHIQ + YOPIQ)

130 - arizalar	30 - asosiy qarz (AQ) bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar soni
22 - shartnomalar	47 - muddati o'tgan AQ maksimal kuni
4 - shartli majburiyatlilar	2 358 000 - muddati o'tgan AQ maksimal summasi
236 - kredit axboroti subyekti bo'yicha so'rovlar va obunalar	52 - uzluksiz muddati o'tgan foiz to'lovlarining maksimal kuni
13 626 076 - o'rtacha oylik to'lov summasi (so'm)	4 301 002 - muddati o'tgan foiz to'lovlarining maksimal summasi

1-rasm. “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi<sup>2</sup>

Kreditni to'lamaslik riskini kamaytirishning asosiy usullaridan biri – potensial qarzidorlarni sinchiklab tanlashdir. Mijozning moliyaviy ahvolini va bankka o'z vaqtida qarzlarni qaytarishga ishonchlilikini tahlil qilish bo'yicha ko'plab usullar mavjud.

Kredit riskini kamaytirish yo'llari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kredit bo'limi kreditlarni ajratish va qaytarish to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda tizimlashi va umumlashtirishi kerak. Berilgan kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan kreditlar hajmiga ko'ra, kredit olgan mijozlar (shaxslar, davlat organlari, korxonalar, boshqa banklar va boshqalar) bo'yicha tasniflanishi kerak;

bank umuman iste'molchilarining kredit tarixini, shu jumladan, potensial mijozlarning kredit tarixini (ya'ni, mijozning qayerda va qanday kredit olganligi va ularni qanday qaytarib berganligi) o'rganishlari kerak.

- rivojlanish istiqbollari tahlil qilish orqali;
- bankda kredit berish to'g'risida aniq ko'rsatmalar bo'lishi kerak (kimlarga kredit berilishi va qancha muddatga berilishi);
- kredit berish uchun aniq vakolatlar belgilanishi kerak, bank xodimining darajasi qanchalik baland bo'lsa, u imzolaydigan kredit miqdori shunchalik ko'p bo'lishi kerak;
- kreditni ta'minlashning turli xil usullari mavjud, masalan, mijoz garov sifatida biron narsani beradi va agar u qarzni qaytarmasa, bank garov egasiga aylanadi;
- katta miqdordagi va tahlikali kreditlarni berishda bir nechta banklar birlashadi va birgalikda ushbu kreditni beradi;
- kredit qaytarilmasligini sug'urtalaydigan sug'urta kompaniyalari mavjud (lekin kreditni qaytarmaslik sug'urta qilinmaydi – bu bankning riski deb hisoblaydigan nuqtayi nazarlar mavjud);
- kreditlarni berish bo'yicha tashqi cheklavlar mavjud (masalan, Markaziy bank tomonidan belgilangan); aytaylik, bitta mijozga juda katta miqdorda kredit berishga yo'l qo'yilmaydi.

<sup>2</sup> Kreditbyuro.uz sayti muallif ishlanmasi





Amerika banklari amaliyotida “c” harfidan boshlangan soʻzlar bilan ifodalanadigan mijozlarni tanlashning “beshta “c” qoidalari” mezonlari qoʻllaniladi:

- character (qarz oluvchining tabiati);
- capacity (moliyaviy salohiyati);
- capital (kapital, mol-mulk);
- collateral (taʼminlash);
- conditions (umumiy iqtisodiy shartlar).

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari faoliyatida kredit riski bankning moliyaviy barqarorligi va likvidligiga bevosita taʼsir etuvchi eng muhim risk turlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada kredit riskining mohiyati, turlari hamda uni yuzaga keltiruvchi omillar chuqur tahlil qilinib, kredit riskini samarali boshqarish bank tizimining barqaror rivojlanishida muhim oʻrin tutishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, kredit riskining yuzaga kelishiga makroiqtisodiy omillar — inflyatsiya, iqtisodiy oʻsish surʼatlari, foiz stavkalari va valyuta kurslarining oʻzgarishi bilan bir qatorda, mikroiktisodiy omillar — qarzdorning moliyaviy holati, toʻlov intizomi va boshqaruv sifati ham sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, banklar tomonidan kredit portfelini muntazam monitoring qilish, mijozlarning moliyaviy koʻrsatkichlarini chuqur tahlil etish va zamonaviy risk-boshqaruv mexanizmlarini qoʻllash zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, maqolada kredit riskini baholashning matematik-uslubiy asoslari amaliy misollar orqali yoritilib, toʻliq ehtimollik formulasi hamda Bayes formulasidan foydalanish kreditning qaytarilmaslik ehtimolini aniqroq baholash imkonini berishi koʻrsatildi. Kredit riskini tahlil qilishda giring koeffitsiyenti, rentabellik, likvidlik, moliyaviy liveridj va foizlarni qoplash koeffitsiyentlari kabi moliyaviy indikatorlarning ahamiyati yuqori ekanligi asoslandi. Ushbu koʻrsatkichlar banklarga qarzdorning moliyaviy barqarorligini baholash, ehtimoliy yoʻqotishlarni kamaytirish va kredit siyosatini takomillashtirishda muhim axborot manbai boʻlib xizmat qiladi. Natijada, kredit riskini ilmiy asosda baholash va samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etish tijorat banklari faoliyatining ishonchliligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vahobov A.V., Mallaboyev N.M. “Pul, kredit va banklar”-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020
2. **Moliyaviy risklar nazariyasi:** Oʻquv qoʻllanma / Sh.Q.Fozilchayev, N.Gʻ.Xidirov; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. -240 b.
3. <https://www.imv.uz/> Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti. (Muallif ishlanmasi)
4. cbu.uz maʼlumotlari (Muallif ishlanmasi)
5. “Kreditlar oʻsishining muammolari va istiqbollari”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil, Rustamov M. S.

